TILSHUNOSLIKNING BUGUNGI KUNDAGI O‘RNI

Abdullayeva Charos Farxodovna
Guliston Davlat Pedagogika Instituti o’qituvchisi
e-mail: Abdullayevacharos710@gmail.com
Xoliqulova Mahliyo G’oyimnazar qizi
Guliston Davlat Pedagogika Instituti talabasi
e-mail: mahliyoholiqulova8@gmail.com
Sindarova Hulkar Dusbek qizi
Guliston Davlat Pedagogika Instituti talabasi
e-mail: sindarovahulkar@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning bugungi kundagi o‘rni bo‘yicha hamda til madaniyati va nutqidagi muammolar va yechimlar borasida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, globalizatsiya, texnika, resurs, kognitiv lingvistika, til madaniyati, axborot, jamiyat, sotsiolingvistika, pragmalingvistika.

Аннотация: В данной статье рассматривается современное значение лингвистики, а также проблемы и пути решения, связанные с культурой речи и языковыми нормами.

Ключевые слова: лингвистика, глобализация, техника, ресурс, когнитивная лингвистика, культура речи, информация, общество, социолингвистика, прагмалингвистика.

Annotation: This article discusses the current role of linguistics, as well as the issues and solutions related to speech culture and language norms.

Keywords: linguistics, globalization, technology, resource, cognitive linguistics, speech culture, information, society, sociolinguistics, pragmalinguistics.

Bugungi kunda tilshunoslik fani jamiyatdagi o‘rni bilan yanada ahamiyat kasb etmoqda. [1] Tilshunoslik ham barcha fanlar bilan uzviy bog‘liq.Til butun bir jamiyatning madaniyati dunyoqarashi va tafakkurini ifodalab beradi. Til nafaqat odam uchun o‘zaro aloqa vositasi balki milliy o‘zlikni anglatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham tilni o‘rganish va uning tuzilishi, rivojlanish bosqichlari va bugungi ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida chuqur izlanishlar olib borish zarurdir.

Ayni damda hozirgi zamon tilshunoslik fani inson faoliyatining turli sohalari bilan o‘zaro bog‘lanib bormoqda. Misol uchun, globalizatsiya, zamonaviy texnika va axborot resurs texnologiyalarining jadal rivojlanishi oqibatida tilning mamlakatimizdagi roli yanada yuqori darajaga ko‘tarildi. Zamonaviy Axborot oqimi shunchalik tezlashganki, natijada til endi faqat o‘zaro so‘zlashuv yoki yozish usuli emas, balki axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash tizimining asosiy markaziga aylandi. Shu boisdan ham tilshunoslik hozirda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etadigan fan sifatida rivojlanib shakllanmoqda. Hozirgi kunda tilshunoslikning bajaradigan vazifalari faqatgina grammatik tizimni o‘rganish bilan chegaralanib qolmaydi. U jamiyat tafakkurini, ijtimoiy muhit va ro‘lini, madaniy qadriyatlarni o‘rganish orqali tilning jamiyatdagi o‘rnini yoritib beradi. Shu sababdan ham , zamonaviy tilshunoslik har bir millatning nafaqat madaniy yoki manaviy jihatini balki intellektual taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy muhim fan sifatida qaraladi. Shuningdek bugungi kunda tilshunoslikda zamonaviy yo‘nalishlar va yangi yondashuvlar ham ishlab chiqilmoqda.

Tilshunoslik so‘nggi o‘n yilliklar davomida sezilarli darajada kengayib, yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Avvallari til faqat grammatik tizim uchun xizmat qilib, fonetika, morfologiya va sintaksis nuqtai nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa, hozirda kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, korpus lingvistikasi kabi yangi yo‘nalishlar shakllandi.Bu shuncha yil ichida tilshunoslikka alohida etibor berilganidan dalolat beradi. Bu yo‘nalishlar tilni nafaqat inson tafakkuri, madaniyati, jamiyatdagi o‘rni va hattoki texnologik rivojlanish bilan bog‘liq jarayon sifatida o‘rganishga qaratilgan. Misol uchun, kognitiv lingvistika til orqali inson fikrlash tafakkuri qanday shakllanishini o‘rganadi. Pragmalingvistika esa nutq jarayoni davomida so‘zlovchi va tinglovchining kommunikativ jihatini tahlil qiladi. Sotsiolingvistika esa tilning ijtimoiy tabaqalarini o‘rganadi bular: yosh, jins va kasb. Shuningdek, kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt asosida yaratilayotgan tadqiqotlar tilshunoslikni yangi bosqichga va yangi eraga olib chiqdi. Madaniyat deganda bugungi kunda barcha insonlar jamiyatda o‘zini tuta bilishini tushunishadi ammo madaniyat hamma sohada bor. Shuningdek, til madaniyati va nutq madaniyati sohalarida ham dolzarb muammolar mavjud.[2]

Til madaniyati har bir xalqning ma’naviy olami va madaniy saviyasini ifodalovchi asosiy mezonlardan biridir. Insonning fikrini aniq, ravon va ta’sirli ifoda eta olishi, uning nutq madaniyatiga, so‘z boyligiga hamda adabiy til me’yorlariga amal qilish darajasiga bog‘liq. Til madaniyati nafaqat so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish yoki grammatik qoidalarga rioya etish, balki fikrni estetik jihatdan go‘zal, o‘rinli va tushunarli tarzda yetkazish san’atidir. Shu bois, til madaniyati millatning o‘zligini, tafakkur madaniyatini va ijtimoiy madaniyat darajasini aks ettiradi. Bugungi globallashuv davrida til madaniyatini saqlash masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda so‘zlashuv tilining aralash shakllari, imlo xatolari, begona so‘zlarning ko‘payishi adabiy til me’yorlariga zarar yetkazmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida ruscha yoki inglizcha so‘zlarni o‘zbek tiliga qo‘shib ishlatish holatlari tez-tez uchramoqda. Bunday aralashmalar asta-sekin so‘z boyligini kamaytiradi, milliy tilning tabiiy ohangini yo‘qota boshlaydi. Shu sababli har bir inson, ayniqsa, o‘qituvchilar, jurnalistlar va ziyolilar til madaniyatini asrashda namuna bo‘lishi lozim. Nutq madaniyati esa til madaniyatining amaliy ko‘rinishidir. Bu insonning kundalik muloqotda, darsda, nutq so‘zlashda yoki yozma ifodada so‘zlarni to‘g‘ri tanlashi, talaffuz, intonatsiya va uslubni joyida qo‘llay bilish ko‘nikmasini o‘z ichiga oladi. Madaniyatli nutq sohibi nafaqat to‘g‘ri gapiradi, balki o‘z fikrini tinglovchiga yoqimli va ta’sirli tarzda etkazadi. Ayniqsa, o‘qituvchi, siyosatchi yoki san’atkor uchun nutq madaniyati kasbiy mahoratning ajralmas qismidir. Til va nutq madaniyatini yuksaltirish uchun ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni to‘g‘ri yozish, to‘g‘ri

talaffuz va so‘z boyligini oshirishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari, internet sahifalari ham adabiy til me’yorlariga amal qilishi zarur. Tildagi aniqlik, so‘zlardagi ifoda go‘zalligi va nutqdagi madaniylik - bu jamiyat taraqqiyotining belgilaridan biridir. Til madaniyati va nutq madaniyati muammolari bugungi kunda faqat tilshunoslarning emas, balki butun jamiyatning e’tiborida bo‘lishi kerak. Chunki tilning tozaligi, so‘zning go‘zalligi va nutqning boyligi - bu millatning madaniy yuksakligidir. Har bir inson o‘z ona tilini sevsa, uni toza, chiroyli va me’yorida ishlatsa, bu xalqning madaniy hayoti yanada yuksaladi. Til madaniyati va nutq madaniyati bilan bog‘liq muammolarni hal etish uchun, eng avvalo, ta’lim tizimida ona tili va nutq o‘stirish fanlariga e’tibor kuchaytirilishi zarur. Boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarga to‘g‘ri talaffuz, imlo, fikrni aniq ifodalash va nutq odobini o‘rgatish uchun amaliy mashg‘ulotlar ko‘paytirilishi lozim. Darslarda adabiy matnlarni o‘qish, she’r yodlash, erkin fikrlash mashqlari, suhbatlar va munozaralar orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish samarali natija beradi.Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet sahifalarida til me’yorlariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish muhimdir. Jurnalistlar, blogerlar va teleboshlovchilar adabiy tildan to‘g‘ri foydalanishga mas’ul bo‘lishlari kerak. Chunki ular keng ommaga ta’sir o‘tkazuvchi shaxslar hisoblanadi va ularning nutqi yoshlar uchun o‘rnak bo‘ladi. Tilshunoslar, o‘qituvchilar va adabiyot ahli hamkorlikda zamonaviy til madaniyati bo‘yicha qo‘llanmalar, o‘quv dasturlari va metodik tavsiyalar ishlab chiqishlari lozim. Shu yo‘l bilan yoshlar orasida adabiy tildan to‘g‘ri foydalanish odatini shakllantirish mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda “Til madaniyati kuni”, “To‘g‘ri yoz, chiroyli so‘zla” kabi loyihalar tashkil etish tilga e’tiborni oshiradi. Ota-onalar ham farzandlariga to‘g‘ri so‘zlash, odob bilan muloqot qilish, so‘z tanlashda ehtiyot bo‘lishni o‘rgatishlari zarur. Oiladagi nutq muhiti bolaning kelajakdagi nutq madaniyatini belgilab beradi. Til va nutq madaniyatini saqlash milliy qadriyatni asrash bilan barobardir. Har bir inson o‘z ona tiliga hurmat bilan yondashib, uni to‘g‘ri, chiroyli va ifodali ishlatishga harakat qilsa, jamiyatda madaniyatli muloqot muhitini yaratish mumkin. Shu tariqa, til madaniyati faqat tilshunoslik muammosi emas, balki butun jamiyatning ma’naviy burchiga aylanadi. Bu yo‘nalishlar bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borilmoqda. [4]

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal etish – bu tilni saqlash, boyitish va uni kelajak avlodlarga toza holda yetkazish demakdir. Tilni asrash – bu millatni asrashdir. Chunki til orqali xalqning o‘ziga xosligi, madaniyati va tafakkuri avloddan avlodga o‘tadi. Har bir inson o‘z ona tiliga mehr bilan qarab, uni to‘g‘ri, chiroyli va ifodali ishlatishga intilsa, bu nafaqat shaxsiy madaniyatning, balki milliy yuksalishning ham ifodasidir. Shu bois, tilni sevish, uni qadrlash va uni himoya qilish - har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0092/92_i_20250511
2. https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/35541/22716/36747
3.https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/24/NamDU-ARM-7759-Tilshunoslikning_dolzarb_muammolari.pdf